



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 196 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyutayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	



TALABALARDA IMPOSTOR FENOMENI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY- PSIXOLOGIK OMILLARNING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI

Kamilova Gulzoda

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0007-1781-7059

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar orasida impostor fenomenining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik fanida o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Impostor fenomeni tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi, uning nazariy asoslari hamda talabalar populyatsiyasida tarqalganligi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhlangan. Oilaviy tarbiya uslubi, gender xususiyatlari, ijtimoiy taqqoslash, akademik muhit bosimi va etnik-institutsional omillarning fenomen shakllanishidagi o'rni ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: impostor fenomeni, impostor sindromi, o'z-o'zini baholash, akademik tashvish, ijtimoiy taqqoslash, perfek-sionizm, talabalar psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the extent to which social-psychological factors influencing the formation of the impostor phenomenon among students have been studied in psychological research. It reviews the origin of the concept, its theoretical foundations, and foreign studies on the prevalence of the phenomenon in student populations. The role of parenting style, gender characteristics, social comparison, academic environment pressure, and ethnic-institutional factors in shaping the phenomenon is examined.

Key words: impostor phenomenon, impostor syndrome, self-esteem, academic anxiety, social comparison, perfec-tionism, student psychology, social-psychological factors.

Аннотация: В данной статье анализируется степень изученности в психологической науке социально-психо-логических факторов, влияющих на формирование феномена самозванца у студентов. Рассмотрены история введения понятия в научный оборот, его теоретические основания, а также зарубежные исследования распро-странённости феномена среди студенческой популяции. Проанализирована роль стиля семейного воспитания, гендерных особенностей, социального сравнения, давления академической среды и этно-институциональных факторов в формировании феномена.

Ключевые слова: феномен самозванца, синдром самозванца, самооценка, академическая тревожность, соци-альное сравнение, перфекционизм, психология студентов, социально-психологические факторы.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda oliy ta'lim tizimidagi raqobatning kuchayishi, akademik natijadorlikka qo'yiladigan talablarning ortishi hamda ta'lim muhitidagi psixologik bosimning kuchayishi talabalar shaxsining ichki resursla-rini jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Ushbu sharoitda ko'plab, hatto yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega talaba-larda ham o'z qobiliyati va yutuqlariga nisbatan ichki ishonchsizlik, muvaffaqiyatlarini tasodif yoki tashqi omillar bilan izohlash hamda "fosh bo'lish"dan doimiy qo'rqish holati kuzatiladi. Psixologiya fanida bu hodisa impostor fenomeni nomi bilan yuritiladi va u shaxsning akademik faoliyatdagi psixologik farovonligiga, o'quv motivatsi-yasiga hamda kasbiy o'zini-o'zi anglashiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha jihat bilan izohlanadi. Birinchidan, xorijiy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, impostor kechinmalari talabalar orasida keng tarqalgan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda bu ko'rsatkich 70 foizdan yuqori bo'lishi qayd etilgan, bu esa hodisaning ommaviy xususiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ikkinchidan, impostor fenomeni psixologik distress, tashvish va depressiv holatlar bilan ijobiy bog'liqlikka ega bo'lib, talabaning o'quv faoliyatidagi samaradorligiga va ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, mazkur hodisani shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar: oilaviy tarbiya uslubi, gender stereotiplar, ijtimoiy taqqoslash, madaniy-institutsional kontekst - ko'p jihatdan jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bu omillarning har bir mintaqada o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini taqozo etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Impostor fenomeni (inglizcha impostor phenomenon, ba'zan impostor syndrome deb ham ataladi) tushunchasi ilk bor 1978-yilda amerikalik psixologlar Paulina Klans (Pauline Clance) va Suzanna Aymes (Suzanne Imes) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ular yuqori yutuqlarga erishgan, ammo o'z muvaffaqiyatlarini ichki tan ololmaydigan va ularni tasodif yoki tashqi omillar bilan izohlaydigan shaxslarni tadqiq qilish jarayonida bu hodisani ta'riflashgan. Muhim jihati shundaki, mualliflar ataylab "sindrom" emas, balki "fenomen" atamasini tanlashgan - bu orqali ular hodisaning tibbiy tashxis emas, balki shaxsning subyektiv ichki kechinmasi ekanligini ta'kidlamochi bo'lishgan^[2].

Impostor fenomeni bo'yicha tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri - uni ta'lim muassasalari, xususan, oliy o'quv yurtlari talabalari orasida o'rganish. 2023-yilda amalga oshirilgan keng qamrovli adabiyotlar tahlilida ta'kidlanishicha, impostor kechinmalari post-o'rta ta'lim (post-secondary) bosqichidagi talabalar orasida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, akademik muhitda allaqachon marginalashtirilgan guruhlar - masalan, ayollar va irqiy-etnik ozchiliklar vakillari orasida nisbatan ko'proq kuzatiladi^[9].

Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasi talabalari orasida o'tkazilgan tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq, chunki bu yo'nalishda akademik bosim va professional javobgarlik yuqori bo'ladi. Tailandning Chiang Mai universitetida o'tkazilgan tadqiqotda klinik amaliyotdagi tibbiyot talabalarining deyarli yarmida (47,4%) impostor fenomeni alomatlari qayd etilgan^[3]. Amerikaning bir universitetida sog'liqni saqlash sohasi talabalari orasida o'tkazilgan yaqinroq tadqiqotda esa bu ko'rsatkich yanada yuqori - 74 foizni tashkil etgan^[6], biroq qiziqarli jihati shundaki, ushbu tadqiqotda hech qanday alohida demografik yoki psixologik omil impostor kechinmalarining mustaqil bashoratchisi sifatida aniqlanmagan, bu esa fenomenning talabalar orasida keng tarqalganligini va uning nafaqat alohida kichik guruhlariga xos ekanligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik omillar bo'yicha tadqiqotlarning tahlili

Impostor fenomenini shakllantiruvchi omillar orasida oilaviy munosabatlar alohida o'rin tutadi^[11]. Indoneziyalik tadqiqotchilar tomonidan birinchi va ikkinchi kurs talabalari orasida o'tkazilgan tadqiqotda oilaviy munosabatlarning, umumiy tashvishning hamda "Katta beshlik" shaxsiy xususiyatlarining impostor fenomeniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Xususan, emotsional, fiziologik, kognitiv, xulq-atvor, ekstraversiya va o'z-o'zini anglash kabi olti o'zgaruvchi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik topilgan, shu bilan birga, kogeziya, ifodalilik, konflikt, kelishuvchanlik, nevrotizm va ochiqlik kabi omillarning ta'siri tasdiqlanmagan^[4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Impostor fenomeniga oid xorijiy psixologik tadqiqotlar o'rganilib, talabalarda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik, oilaviy, ijtimoiy va akademik omillar tahlil qilindi. Olingan ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilib, fenomenning asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarda impostor fenomeni bilan uyat hissi va ijtimoiy tashvish o'rtaidagi bog'liqlik ham o'rganilmoqda. Baholovchi bosim va identifikatsiya o'tish davrida bo'lgan universitet talabalari darslarda taqdimot qilish, guruh muhokamalarida qatnashish va yordam so'rash kabi ijtimoiy vaziyatlarda impostor fenomeni sababli psixologik qochish va xulq-atvor ingibitsiyasini boshdan kechirish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Kollektivistik madaniyatlarda bu holat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunda impostor fenomeni muvaffaqiyatsizlikka uchrash va atrofdagilarning kutganlariga mos kelmaslikdan doimiy tashvishlanish orqali uyat hissini kuchaytiradi^[1].

Amerika tadqiqotlarida etnik-irqiy tegishlilik va ta'lim muassasasining institutsional tarkibi ham muhim omil sifatida o'rganilgan. Afroamerikalik talabalar orasida o'tkazilgan tadqiqotda impostor fenomeni psixologik moslashuvning muhim xavf omili sifatida qaralgan, bunda oilaviy tashvishlar - jumladan, yuqori akademik kutuvlarga javob berish bosimi va aybdorlik hissi - alohida ta'kidlangan^[8].

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, impostor fenomeni xorijiy psixologiya fanida 1978-yildan buyon faol o'rganilib kelinmoqda va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar soni so'nggi o'n yillikda sezilarli darajada oshgan. Talabalar populyatsiyasi bo'yicha alohida tadqiqotlar oila munosabatlari, ota-ona tarbiyasi uslubi, gender xususiyatlari, ijtimoiy taqqoslash tendensiyasi, akademik muhit bosimi, madaniy kontekst hamda etnik-institutsional omillarning impostor fenomeni shakllanishidagi rolini izchil isbotlab kelmoqda.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismi G'arb va, qisman, Sharqiy Osiyo ta'lim tizimlari kontekstida olib borilgan bo'lib, markaziy osiyolik, jumladan, o'zbekistonlik talabalarga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar - jumladan, kollektivistik oilaviy tarbiya, jamoatchilik nazorati, mahalla-madaniy an'analar va milliy ta'lim



tizimining o'ziga xos bosim mexanizmlari - hisobga olingan holda o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini va nazariy-amaliy ahamiyatini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi hamda talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni mahalliy sharoitda maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

Psixologik tadqiqotlar tahlili talabalarda impostor fenomenining shakllanishi birgina individual-psixologik xususiyat bilan emas, balki shaxsiy, ijtimoiy, oilaviy va ta'lim muhitiga oid omillarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq murakkab hodisa ekanligini ko'rsatadi. Impostor fenomeni yuqori natijalarga erishgan shaxsning o'z muvaffaqiyatlarini ichki qobiliyat va kompetensiyasi bilan bog'lay olmasligi, erishilgan yutuqlarni tashqi omillar - omad, tasodif, boshqalarning yordami yoki ortiqcha mehnat natijasi sifatida baholashi hamda o'zining "qobiliyatsizligi" boshqalar tomonidan aniqlanib qolishidan xavotirlanishi bilan tavsiflanadi.

Talabalik davri mazkur fenomenning namoyon bo'lishi uchun alohida ahamiyatga ega psixologik bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda shaxs yangi akademik muhitga moslashadi, o'z imkoniyatlarini tengdoshlari bilan taqqoslaydi, kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi va o'z faoliyati natijalariga nisbatan mustaqil baholash mezonlarini rivojlantiradi. Akademik talablarning ortishi, reyting tizimi, doimiy baholanish, yuqori natija ko'rsatishga intilish va raqobat muhiti ayrim talabalarda o'z imkoniyatlariga shubha bilan qarashni kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqotlarda impostor fenomeni bilan bog'liq individual-psixologik omillar orasida perfektsionizm, o'z-o'zini past baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, yuqori darajadagi xavotir, o'ziga nisbatan haddan tashqari talabchanlik hamda muvaffaqiyatni tashqi sabablar bilan izohlash tendensiyasi alohida ajratiladi. Ayniqsa, perfektsionistik talablar talabaning kichik xato yoki kamchiliklarni ham umumiy qobiliyatsizlik belgisi sifatida qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Natijada obyektiv jihatdan yuqori akademik natijalarga ega talaba ham o'z bilim va kompetensiyasini yetarli deb hisoblamaydi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan esa referent guruhning bahosi, tengdoshlar bilan ijtimoiy taqqoslash, o'qituvchilarning munosabati, akademik raqobat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va shaxsga nisbatan bildiriladigan kutilmalar muhim o'rin egallaydi. Talaba doimiy ravishda o'zidan yuqori natija ko'rsatayotgan tengdoshlari bilan o'zini taqqoslashi natijasida shaxsiy yutuqlarini yetarlicha qadrlamasligi mumkin. Bunda ijtimoiy taqqoslash mexanizmi o'z imkoniyatlarini obyektiv baholash vositasi bo'lishdan chiqib, o'zini boshqalardan past baholash manbaiga aylanish ehtimoli mavjud.

Zamonaviy raqamli muhit ham ushbu jarayonni kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda boshqa talabalarning akademik muvaffaqiyatlari, stipendiyalari, tanlovlardagi g'alabalari, xalqaro dasturlardagi ishtiroki yoki kasbiy yutuqlarining ko'proq namoyish etilishi insonda boshqalarning hayotini ideal holatda tasavvur qilish tendensiyasini yuzaga keltiradi. Natijada talaba o'zining kundalik qiyinchiliklarini boshqalarning namoyish etilayotgan muvaffaqiyatlari bilan taqqoslab, o'z kompetentligiga nisbatan shubhani kuchaytirishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar ham impostor fenomenining psixologik asoslarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalikdan yuqori natijalar talab qilinishi, yutuqlarning yetarlicha e'tirof etilmasligi, bolaning boshqa tengdoshlari bilan muntazam taqqoslanishi yoki ota-onalar tomonidan shartli qo'llab-quvvatlashning ustunligi keyinchalik shaxsning o'z qadrini faqat natija orqali baholashiga zamin yaratishi mumkin. Bunday sharoitda talaba muvaffaqiyatni tabiiy rivojlanish natijasi sifatida emas, balki doimiy ravishda o'z qiymatini isbotlash vositasi sifatida qabul qilishi ehtimoli ortadi.

Shuningdek, ta'lim muhitidagi psixologik xavfsizlik darajasi muhim omil hisoblanadi. Xatoga rivojlanish va o'rganishning tabiiy elementi sifatida qaraladigan, o'qituvchi tomonidan konstruktiv fikr-mulohaza beriladigan va talabalar o'rtasida sog'lom hamkorlik mavjud bo'lgan muhit impostor kechinmalarining kamayishiga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, faqat yakuniy natijaga yo'naltirilgan, xatolar keskin tanqid qilinadigan va talabalar doimiy ravishda o'zaro solishtiriladigan akademik muhit mazkur fenomenning namoyon bo'lishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoit yaratishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan tadqiqotlardan kelib chiqib, impostor fenomenini faqat salbiy shaxsiy xususiyat sifatida talqin qilish yetarli emas. Uni talabaning o'zini baholash tizimi, akademik tajribasi, ijtimoiy taqqoslash jarayonlari, referent shaxslarning munosabati va ta'lim muhitining xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik doirasida o'rganish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, kelgusidagi empirik tadqiqotlarda impostor fenomenining darajasini aniqlash bilan bir qatorda, unga ta'sir qiluvchi omillar va himoya resurslarini ham kompleks baholash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologik tadqiqotlarning nazariy tahlili talabalarda impostor fenomenining shakllanishi ko'p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Mazkur fenomen talabaning real akademik muvaffaqiyatlari bilan o'z kompetentligini subyektiv baholashi o'rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo'lib, shaxsning o'z yutuqlarini



ichki imkoniyatlari bilan bog'lay olmasligi, muvaffaqiyatni tashqi sabablar bilan izohlashi va o'zining yetarlicha kompetent emasligi aniqlanib qolishidan xavotirlanishi bilan xarakterlanadi.

Tahlil natijasida talabalarda impostor fenomeniga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni individual-psixologik, oilaviy, ijtimoiy va akademik omillar guruhlariga ajratish mumkinligi aniqlandi. Perfeksionizm, o'z-o'zini past baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish va yuqori talabchanlik individual omillar sifatida namoyon bo'lsa, ota-onalarning yuqori kutilmalari va shartli qo'llab-quvvatlashi oilaviy omillar qatoriga kiradi. Tengdoshlar bilan muntazam taqqoslash, ijtimoiy tarmoqlardagi idealizatsiyalangan muvaffaqiyat namunalari va tashqi bahoga qaramlik ijtimoiy omillar sifatida, akademik raqobat, baholash tizimi hamda ta'lim muhitidagi psixologik xavfsizlik esa institutsional omillar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, adekvat o'z-o'zini baholash, o'z muvaffaqiyatlarini obyektiv tahlil qila olish, konstruktiv fikr-mulohaza va psixologik xavfsiz ta'lim muhiti impostor kechinmalarini kamaytiruvchi himoya omillari bo'lishi mumkin. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida talabalarining nafaqat akademik natijalarini, balki ularning o'ziga munosabati, psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish muhimdir.

Umuman, talabalarda impostor fenomenini o'rganishda kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuvdan foydalanish ushbu hodisaning kelib chiqish mexanizmlari, kuchaytiruvchi va himoya qiluvchi omillarini chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda talabalarining yoshi, ta'lim bosqichi, akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, perfeksionizm va o'z-o'zini baholash xususiyatlari bilan impostor fenomeni o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan tekshirish ushbu muammoning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqishda muhim istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chuan He, Lin Ye (2026). Associations among impostor phenomenon, self-compassion, shame, and social anxiety in college students. *Frontiers in Psychology*, 17.
2. Clance, P. R., Imes, S. A. (1978). The impostor phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. *Psychotherapy: Theory, Research and Practice*, 15(3), 241-247.
3. Shinawatra, P., Kasirawat,. (2023). Exploring Factors Affecting Impostor Syndrome among Undergraduate Clinical Medical Students at Chiang Mai University, Thailand: A Cross-Sectional Study. *Behavioral Sciences*, 13, 976.
4. Umi Dhiya Fahira, Bahrul Hayat. (2021). Impostor Phenomenon on First- and Second-year College Students. *Tazkiya: Journal of Psychology*, 9(2), 177-188.
5. Rowell, H., Schroeder, M. N., Howard, M. S., Murphy, J. A. (2025). Identification of risk factors for impostor phenomenon among healthcare professional students. *Currents in Pharmacy Teaching and Learning*.
6. Fassl, F., Yanagida, T., Kollmayer, M. (2020). Impostors Dare to Compare: Associations Between the Impostor Phenomenon, Gender Typing, and Social Comparison Orientation in University Students. *Frontiers in Psychology*, 11, 1225.
7. Bernard, D. L., Jones, S. C. T., Volpe, V. V. (2020). Impostor Phenomenon and Psychological Well-Being: The Moderating Roles of John Henryism and School Racial Composition Among Black College Students. *Journal of Black Psychology*, 46(2-3), 195-227.
8. Audrey D.Ménard. (2023). The impostor phenomenon in post-secondary students: A review of the literature. *Review of Education*, 11, e3399.
9. Sonnak, C., Towell, T. (2001). The impostor phenomenon in British university students: Relationships between self-esteem, mental health, parental rearing style and socioeconomic status. *Personality and Individual Differences*, 31(6), 863-874.
10. Пермьякова, М. Е., Бабушкина, А. А. (2025). Исследование феномена самозванца в связи с личностными характеристиками и копинг-стратегиями у людей зрелого возраста. *Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Проблемы образования, науки и культуры*, 31(4), 221-234.
11. Руднова, Н. А., Шевелева, М. С. (2025). Особенности организационного поведения сотрудников с феноменом самозванца. *Национальный психологический журнал*, 20(1), 86-97.
12. Шевелева, М. С. (2023). Феномен самозванца: обзор зарубежных исследований. *Современная зарубежная психология*, 12(2), 116-124.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.